

SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOGIK MOHIYATI

Qo'chqarova Gulnoza Rustam qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti

Namangan filiali 1-bosqich magistranti

gulnozaqochqarova17@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0000-8073-700X>

Annotatsiya: Ushbu tezisda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tushunchasining nazariy manbalari, didaktik-me'yoriy asoslari hamda pedagogik mohiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi shaxsning individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va o'quv motivatsiyasini ta'lim mazmuni, metodlari hamda baholash tizimi bilan uyg'unlashtirish mexanizmlarini asoslashdir. Metodologiya sifatida ilmiy adabiyotlarni tahlil va sintez qilish, qiyosiy-pedagogik yondashuv hamda konseptual modellashirish qo'llanadi. Ilmiy yangilik shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'quv maqsadlarini kompetensiyaviy natijalar bilan bog'lash, o'quvchining subyektivligini rivojlantirish indikatorlari va o'qituvchi faoliyatini moslashtirish tamoyillarini tizimli izohlashdan iborat. Natijalar pedagogika yo'nalishida ta'lim texnologiyalarini loyihalash va metodik ta'minotni takomillashtirishda qo'llanishi mumkin.

Kalit so'zlar: shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, individual ta'lim trayektoriyasi, o'quv motivatsiyasi, subyekt-subyekt munosabati, differensial yondashuv, kompetensiya, refleksiya.

ПОНЯТИЕ ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ И ЕГО ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ

Аннотация: В данной диссертации анализируются теоретические источники, дидактические и нормативные основы, а также педагогическая сущность концепции личностно-ориентированного обучения. Целью исследования является обоснование механизмов согласования индивидуальных потребностей, способностей и учебной мотивации личности с содержанием, методами и системой оценивания образования. В качестве методологии используются анализ и синтез научной литературы, сравнительно-педагогический подход и концептуальное моделирование. Результаты могут быть использованы при совершенствовании проектирования и методического обеспечения образовательных технологий в педагогическом образовании, развитии субъектности обучающегося и адаптации деятельности преподавателя. Результаты могут быть использованы при совершенствовании проектирования и методического обеспечения образовательных технологий в педагогическом образовании.

Ключевые слова: личностно-ориентированное обучение, индивидуальная образовательная траектория, учебная мотивация, субъект субъектное взаимодействие, дифференцированный подход, компетенция, рефлексия.

THE CONCEPT OF PERSON-CENTERED EDUCATION AND ITS PEDAGOGICAL ESSENCE

Annotation: *This thesis analyzes the theoretical sources, didactic-normative foundations, and pedagogical essence of the concept of person-centered education. The purpose of the study is to justify the mechanisms for combining the individual needs, abilities, and learning motivation of a person with the content, methods, and assessment system of education. The methodology used is the analysis and synthesis of scientific literature, the comparative-pedagogical approach, and conceptual modeling. The scientific novelty lies in the systematic explanation of the principles of linking the learning objectives of person-centered education with competence-based results, indicators of the development of the student's subjectivity, and the adaptation of the teacher's activities. The results can be used in the field of pedagogy to improve the design of educational technologies and methodological support.*

Keywords: *learner-centered education, individual learning trajectory, learning motivation, subject-subject interaction, differentiated instruction, competency-based learning, reflection.*

KIRISH

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim zamonaviy didaktikaning markaziy konseptlaridan biri bo'lib, u ta'lim jarayonini "o'qitish"ning texnik tashkil etilishi sifatida emas, balki o'quvchining shaxsiy rivojlanishi, ma'no hosil qilishi va o'zini o'zi boshqarish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan murakkab pedagogik tizim sifatida talqin etadi. Bunday yondashuvda ta'lim natijasi faqat bilimlar yig'indisi bilan o'lchanmaydi; natija o'quvchining o'z imkoniyatlarini anglash, tanlov qilish, javobgarlikni bo'yniga olish, bilish strategiyalarini moslashtirish va o'z faoliyatini refleksiv tahlil qilish qobiliyatlari bilan bog'lanadi. Shu ma'noda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning pedagogik mohiyati o'quvchini ta'limning obyekti emas, balki subyekti sifatida e'tirof etishdan boshlanadi va butun didaktik konstruktsiyani, ya'ni maqsad, mazmun, metod, vosita, muloqot va baholashni qayta qurishni talab qiladi.

Mazkur konsepsiyaning nazariy manbalari psixologiya va pedagogikadagi insonparvarlik, faoliyat hamda ijtimoiy-madaniy yondashuvlarga borib taqaladi. Shaxsning rivojlanishi o'zlashtirishning tashqi boshqaruvdan ichki boshqaruvga o'tishi, ya'ni o'quv jarayonida o'z maqsadini qo'yish va unga erishish yo'llarini tanlashga qodir bo'lishi bilan tavsiflanadi. Konstruktivistik qarashlar bilishning tayyor shaklda uzatilmasligini, balki o'quvchi tomonidan tajriba, muloqot va muammoli vaziyatlar orqali "qurilishini" ta'kidlaydi; demak, o'qituvchi vazifasi bilimni "berish"dan ko'ra, bilish faoliyatini tashkil etish, yo'naltirish va qo'llab-

quvvatlashga siljiydi[1]. Ijtimoiy-madaniy yondashuv esa o'rganishni muloqot, hamkorlik va til vositasida ma'no yaratish jarayoni sifatida ko'rib, o'quvchining yaqin rivojlanish zonasi doirasida ko'maklashish g'oyasini didaktik asosga aylantiradi[2]. Bu manbalar shaxsga yo'naltirilgan ta'limni individualizm bilan tenglashtirmaslik kerakligini ko'rsatadi: shaxsiylik hamkorlik, ijtimoiy tajriba va madaniy me'yorlar bilan uzviy bog'langan holda shakllanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tushunchasini aniqlashda ikki jihat muhim: birinchisi, ta'limning qadriyat-maqсад yo'nalishi; ikkinchisi, pedagogik texnologiya sifatidagi tashkiliy-amaliy mexanizmlar. Qadriyat-maqсад yo'nalishida ta'limning oliy maqsadi o'quvchining shaxsiy kamoloti, o'zini anglashi va ijtimoiy hayotda mas'uliyatli ishtirokidir. Tashkiliy-amaliy mexanizmlar esa shu maqsadga olib boradigan didaktik "vositalar tizimi"ni anglatadi: differensial va individual yondashuv, muammoli o'qitish, loyihaviy faoliyat, formatif baholash, refleksiv mashg'ulotlar, tanlovga asoslangan topshiriqlar, o'quv portfeli va boshqalar. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning pedagogik mohiyati, demak, maqsad va vosita birligida namoyon bo'ladi: shaxsiy rivojlanishni ko'zlagan ta'lim jarayoni shaxsiy tajriba va tanlovni talab qiladigan metodlar bilan uyg'unlashmasa, konsepsiya deklarativ tusda qoladi.

Pedagogika ixtisosligi nuqtayi nazaridan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, avvalo, o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari dizayniga qo'yiladigan talablarni keskin yangilaydi. Metodika endi "mavzuni qanday tushuntirish" bilan cheklanmay, "o'quvchi ushbu mavzuda qanday faoliyatni bajaradi, qanday ma'no hosil qiladi, qanday refleksiya qiladi, qanday mezonlar asosida o'z natijasini baholaydi" degan savollarni markazga olib chiqadi. Bu yerda kompetensiyaviy yondashuv bilan uzviylik yuzaga keladi: kompetensiya faqat bilim va ko'nikma yig'indisi emas, balki vaziyatda mustaqil harakat qilish, resurslarni tanlash va natijani asoslash qobiliyatidir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim esa aynan shu qobiliyatlarning shakllanishi uchun pedagogik muhit yaratadi. Shu sababli o'quv maqsadlarini formulalashda "biladi, aytib beradi" tipidagi fe'llardan ko'ra "tahlil qiladi, asoslaydi,

tanlaydi, rejalashtiradi, baholaydi, takomillashtiradi"[3] kabi faoliyat va refleksiyaning ifodalovchi natijalar ustun bo'lishi zarur.

Mazmunni shaxsga yo'naltirish deganda faqat material hajmini qisqartirish yoki soddalashtirish tushunilmaydi. Mazmun shaxsiy ahamiyat kasb etishi uchun u o'quvchining avvalgi tajribasi, ehtiyojlari va kelajakdagi qo'llash vaziyatlari bilan bog'lanishi lozim. Bunda kontekstual ta'lim tamoyili muhim: mavzu real muammolar, kasbiy vaziyatlar, kundalik hayotdagi qarorlar bilan bog'langanda o'quvchi bilishning ma'nosini his qiladi va ichki motivatsiya kuchayadi. Motivatsiya masalasida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tashqi rag'batlarni inkor etmaydi, biroq ularni ichki motivatsiya, o'z-o'zini belgilash va maqsadning shaxsiy qabul qilinishi bilan muvozanatga keltirishni ko'zlaydi. O'qituvchi bu jarayonda talab va yordam nisbatini nozik boshqaradi: talab o'quvchining imkoniyatlarini cho'zadi, yordam esa muvaffaqiyatsizlikdan himoya qiladi va o'sishga yo'l ochadi.

Metodlar tizimida subyekt-subyekt munosabati shaxsga yo'naltirilgan ta'limning markaziy belgisi hisoblanadi. Subyekt-subyekt munosabati o'qituvchi va o'quvchining teng mavqei degani emas; ularning mas'uliyati turlicha, biroq o'quvchi fikri, tanlovi va ovozi pedagogik qarorlar qabul qilishda inobatga olinadi. Bu munosabat muloqot madaniyatiga tayanadi: savol berish, muhokama qilish, dalil keltirish, o'z nuqtayi nazarini himoya qilish va boshqasining fikrini tinglash o'quv vazifasining ajralmas qismiga aylanadi. Vygotskiy asoslagan ko'maklashish g'oyasi bu yerda metodik ifodasini topadi: o'qituvchi murakkab faoliyatni qismlarga ajratadi, namuna ko'rsatadi, vaqtincha tayanchlar beradi, so'ng ularni bosqichma-bosqich olib tashlab, mustaqillikni kuchaytiradi[4]. Natijada o'quvchi o'zlashtirishning tashqi tayanchlardan ichki strategiyalarga o'tishini boshdan kechiradi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda differensial va individual yondashuv bir-birini to'ldiradi, biroq ular aynan bir narsa emas. Differensial yondashuv guruh ichidagi farqlarni hisobga olib, mazmun, temp, murakkablik yoki yordam darajasini moslashtiradi; individual yondashuv esa o'quvchining shaxsiy ta'lim trayektoriyasini rejalashtirish, tanlovli vazifalar va individual maqsadlar orqali o'quv yo'lini individuallashtirishni anglatadi. Bu jarayonning samaradorligi o'qituvchining diagnostik kompetensiyasiga bog'liq: u o'quvchining boshlang'ich darajasi, qiziqishi,

kuchli va zaif tomonlari hamda o'rganish strategiyalarini aniqlay olishi kerak. Diagnostika faqat nazorat ishi bilan cheklanmay, kuzatish, suhbat, o'zini baholash varaqalari, portfel, rubrikatorlar kabi vositalar orqali muntazam olib boriladi. Shu orqali ta'lim jarayoni "bir martalik o'lchov" emas, rivojlanish dinamikasini ko'rsatuvchi tizimga aylanadi.

Baholash masalasi shaxsga yo'naltirilgan ta'limning pedagogik mohiyatini eng aniq ko'rsatadigan yo'nalishlardan biridir. An'anaviy baholash ko'pincha natijani fiksatsiya qiladi va xatoni jazolash tusini oladi; shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda esa formatif baholash ustuvor bo'lib, u o'quvchiga "qayerdaman, qayerga boraman, qanday boraman" savollariga javob topishga yordam beradi. Bunda mezonlar oldindan ochiq e'lon qilinadi, namuna va rubrikalar bilan tushuntiriladi, o'quvchi o'z ishini tekshiradi va qayta ishlaydi. Baholashning bunday tashkil etilishi refleksiyaning kuchaytiradi, o'quvchini o'z natijasiga mas'ul qiladi va o'qituvchi bilan hamkorlikni mustahkamlaydi. Bloom taksonomiyasi doirasida yuqori kognitiv darajalarga yo'naltirilgan vazifalar shaxsga yo'naltirilgan ta'limga metodik tayanch bo'la oladi, chunki tahlil, sintez va baholash faoliyati shaxsiy fikr va dalillashni talab qiladi [5].

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni joriy etishda o'qituvchi rolining transformatsiyasi alohida muammo sifatida ko'rilishi kerak. O'qituvchi endi faqat axborot manbai emas, balki dizayner, fasilitator, tyutor va refleksiv rahbar vazifalarini bajaradi. Bu esa metodik savodxonlikdan tashqari, muloqot, konfliktologiya, psixologik sezgirlik hamda etik mas'uliyatni taqozo etadi. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvda o'qituvchi o'quvchi shaxsiyatiga hurmat bilan munosabatda bo'lishi, uning sha'ni va qadr-qimmatini asrash bilan birga, akademik talabchanlikni ham saqlashi lozim. "Yumshoqlik" bilan "rivojlantiruvchi talab" o'rtasidagi muvozanat didaktik mahorat mezoniga aylanadi. Bu o'rinda Rogersning insonparvarlik pedagogikasi o'qituvchi shaxsining autentikligi, empatiyasi va qabul qilishi o'quvchining ochilishi uchun sharoit yaratishini ko'rsatadi, biroq bu qabul qilish natija talabini bekor qilmaydi, balki o'quvchini muvaffaqiyatga eltuvchi psixologik xavfsizlikni ta'minlaydi[6].

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchining shaxsiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, u quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

insonparvarlik va demokratiklik; individual yondashuv; o'quvchi faolligini qo'llab-quvvatlash; hamkorlik va dialoglilik.

Mazkur yondashuvda o'qituvchi boshqaruvchi emas, balki yo'naltiruvchi va hamkor sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa ta'lim jarayonida o'zaro ishonch va hurmat muhitini yaratadi[7].

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni samarali tashkil etishda rivojlantiruvchi muhit hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bunday muhit quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

Fizik muhit (yorug'lik, harorat, gigiyena);

Psixologik muhit (ishonch, xavfsizlik, qo'llab-quvvatlash);

Didaktik muhit (o'quv vositalari, materiallar);

Ijtimoiy muhit (hamkorlik, muloqot).

Rivojlantiruvchi muhit o'quvchining kognitiv, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi [8].

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda an'anaviy dars shakllari bilan bir qatorda quyidagi noan'anaviy shakllar ham qo'llaniladi:

muammoli ta'lim; dialogli ta'lim; loyiha metodi; ijodiy darslar; seminar va treninglar; ekskursiya va amaliy mashg'ulotlar.

Mazkur metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, ularni faol o'rganishga jalb etadi hamda bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi [9].

O'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsga yo'naltirilgan ta'limning muhim jihatlaridan biri – har bir o'quvchining yosh xususiyatlari, psixologik rivojlanish darajasi, qiziqishlari, bilim darajasi hisobga olinishi belgilangan.

Individual yondashuv orqali o'quvchilarning ijobiy sifatlarini rivojlantirish va salbiy jihatlarini bartaraf etish imkoniyati yaratiladi.

J. Piaje bolalar tafakkuri rivojlanishini bosqichlarga ajratgan va har bir bosqichda fikrlashning o'ziga xos xususiyatlarini asoslab bergan. Bu nazariya o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko'rsatadi [10].

L.S. Vigotskiy nazariyasi bo'yicha Vigotskiyning "eng yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasiga ko'ra, o'quvchi kattalar yoki tengdoshlar yordamida murakkab vazifalarni bajara oladi. Bu esa ta'limning rivojlantiruvchi rolini asoslaydi [11].

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limda an'anaviy dars shakllari bilan bir qatorda quyidagi noan'anaviy shakllar ham qo'llaniladi: muammoli ta'lim; dialogli ta'lim; loyiha metodi; ijodiy darslar; seminar va treninglar; ekskursiya va amaliy mashg'ulotlar.

Mazkur metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi, ularni faol o'rganishga jalb etadi hamda bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi [12].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekiston ta'lim amaliyotida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni joriy etish, odatda, uchta metodik to'siq bilan uchrashadi: birinchidan, mazmunning haddan tashqari "mavzular ro'yxati" tarzida talqin qilinishi; ikkinchidan, baholashning asosan summativ xarakterda qolishi; uchinchidan, sinfda o'quvchi faolligini oshirish metodlarining fragmentar qo'llanishi. Bu to'siqlarni bartaraf etish uchun shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni alohida usul yoki "interfaol" elementlar yig'indisi sifatida emas, balki yaxlit didaktik tizim sifatida ko'rish lozim. Yaxlitlik deganda maqsadlar kompetensiyaviy natijalarga bog'lanishi, mazmun kontekstual va tanlovli tashkil etilishi, metodlar faoliyatga yo'naltirilishi, baholash esa o'rganishni boshqaruvchi mexanizmga aylanishi tushuniladi. Shu bilan birga, metodik ta'minotda o'qituvchiga tayyor ssenariy berishdan ko'ra, moslashtirish algoritmlarini berish samaraliroq: ya'ni vazifa konstruktorlari, differensial mezonlar, yordam darajalari banki, refleksiya savollari va portfel talablari tizimi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning ilmiy-amaliy natijalarini aniqlashtirish uchun "o'quvchi subyektligi"ni baholash indikatorlarini belgilash muhim. Bunday indikatorlar sifatida o'quvchining maqsad qo'yishi va rejalashtirishi, o'quv strategiyasini tanlashi, resurslardan foydalana olishi, o'z xatolarini tahlil qilishi, qayta ishlashi va natijasini asoslay olishi, hamkorlikda muloqot madaniyatini namoyon etishi kabi ko'rsatkichlar taklif etilishi mumkin. Bu indikatorlar

o'qituvchiga shaxsga yo'naltirilganlik darajasini "subyektiv taassurot" emas, kuzatiladigan ta'lim xulq-atvori orqali baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, indikatorlar qat'iy standart sifatida emas, kontekstga moslashuvchi diagnostik yo'riqnoma sifatida ishlatilishi zarur, aks holda yondashuvning o'zi formalizmga aylanib qoladi.

XULOSA

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim pedagogik jihatdan o'quvchini ta'lim faoliyatining subyekt sifatida rivojlantirishga qaratilgan qadriyat-maqсад va texnologik yechimlar birligidir. Uning mohiyati maqsadlarni kompetensiyaviy natijalar bilan uyg'unlashtirish, mazmunni shaxsiy ahamiyat va kontekst orqali ma'nolantirish, metodlarni hamkorlik va muammoli faoliyat asosida qurish hamda baholashni refleksiv-formatif mexanizmga aylantirishda namoyon bo'ladi.

Tezisda asoslangan yondashuv shaxsga yo'naltirilgan ta'limni alohida metodlar majmui sifatida emas, balki yaxlit didaktik tizim sifatida loyihalashni talab etishini ko'rsatadi.

Amaliy jihatdan esa o'qituvchi faoliyatini diagnostika, moslashtirish va refleksiya asosida qayta tashkil etish, o'quvchi subyektligini kuzatiladigan indikatorlar bilan qo'llab-quvvatlash hamda individual ta'lim trayektoriyalarini metodik jihatdan ta'minlash shaxsga yo'naltirilgan ta'lim samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ishmuhamedov R. J., Abduqodirov A. A., Pardaev A. Pedagogik texnologiyalar: o'quv qo'llanma. – T.: Fan nashriyoti, 2008. – B. 224
2. Селевко Г. К. Современные образовательные технологии: учебное пособие. - М.: Народное образование, 1998. - С. 256.
3. Выготский Л. С. Мышление и речь. – М.: Лабиринт, 1999. – С.352.
4. Rogers C. R. Freedom to Learn. Columbus, Charles E. Merrill Publishing Company, 1969. – p. 358.
5. Bruner J. S. The Process of Education. Cambridge, Harvard University Press, 1960. – p.97.
6. Bloom B. S. Taxonomy of Educational Objectives. Handbook I: Cognitive Domain. – New York, David McKay Company, 1956. – p.207.
7. Yo'ldoshev J.G. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2011. – B.174
8. To'raqulov X.T. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent, 2010. – B.122
9. Azizxo'jayev N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2006. – B.146



10. Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge, 1950.
11. Vygotsky L.S. Mind in Society. – Harvard University Press, 1978.